Mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda, maqolada meva mahsulotlarini qayta ishlash sanoati korxonalarida qo'llanilayotgan xalqaro tajribalar, statistik ma'lumotlar hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari chuqur tahlil qilindi. Xususan, rivojlangan davlatlardagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining faoliyati, klaster tizimi asosidagi boshqaruv mexanizmlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish tajribasi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda jahon miqyosida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qator zamonaviy tizimlari shakllangan bo'lib, ulardan samarali foydalanish mamlakatimizdagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot davomida bir qator rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi.

AQSh tajribasida asosan yuqori texnologiyalarga asoslangan post-harvest tizimi, ya'ni hosil yig'ib olingandan keyingi boshqaruv tizimi rivojlangan. Ushbu tizim qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni (meva, sabzavot, don va boshqalar) yig'ib olishdan boshlab, iste'molchiga yoki qayta ishlash korxonalariga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi.

Post-harvest tizimi hosilni yo'qotishsiz saqlash, tashish va sotuvga tayyorlashni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur tizim tarkibiga quyidagi jarayonlar kiradi:

- mahsulotlarni sifatiga qarab saralash;
- tozalash va yuvish;
- dastlabki sovutish (pre-cooling) orqali mahsulot buzilishining oldini olish;
- ombor va sovutkichlarda saqlash;
- qadoqlash (packaging);
- transport-logistika xizmatlari;
- qayta ishlash jarayonlariga yo'naltirish (sharbat, konservalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish).

Mazkur tizimning samarali tashkil etilishi mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish, saqlash muddatini uzaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Germaniya, Italiya va Avstriya singari rivojlangan davlatlarda kooperativ tizim keng rivojlangan bo'lib, meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlik ko'pincha kooperativ korxonalar modeli asosida ta'minlanadi. Ushbu modelda fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari va logistika tizimlari o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi.

Kooperativ tizim orqali ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi, resurslardan samarali foydalaniladi, mahsulot sifati oshadi hamda eksport imkoniyatlari kengayadi. Bundan tashqari, korxonalar o'rtasidagi hamkorlik mahsulotlarni yagona standart asosida ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishga xizmat qiladi.

Italiya davlatida faoliyat yurituvchi VOG Products kooperativi meva mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi ilg'or tajribalardan biri hisoblanadi. Mazkur kompaniyada iqtisodiy samaradorlikka asosan ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish, ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali erishilgan.




Natijada korxonada resurslardan foydalanish samaradorligi oshib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy foyda darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan.

Xitoy tajribasida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlik bevosita global logistika tizimi va sovuq zanjir (cold chain) texnologiyalarining rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Sovuq zanjir tizimi mahsulotlarning sifatini saqlab qolish, tashish jarayonidagi yo'qotishlarni kamaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Mazkur tizim orqali mahsulotlar real vaqt rejimida monitoring qilinadi, harorat nazorati olib boriladi hamda logistika jarayonlari optimallashtiriladi. Natijada mahsulotlarning saqlanish muddati uzayib, xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi oshadi.

Yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning beshta zamonaviy tizimi shakllangan bo'lib, ular quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning zamonaviy tizimlari¹

Mazkur 1-rasmda meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning beshta zamonaviy tizimi keltirilgan bo'lib, ushbu tizimlarning asosini klaster tizimi tashkil etadi. Chunki klaster tizimi barcha tizimlarni o'zaro bog'lovchi va birlashtiruvchi asosiy iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Hozirgi kunda xorijiy davlatlar tajribasida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishda mazkur beshta tizimdan samarali foydalanib kelinmoqda. Ushbu tizimlarning amaliyotga keng joriy etilishi korxonalarining iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Mamlakatimizdagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ham yuqoridagi zamonaviy tizimlarni rivojlantirish korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon tajribasida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi qator zamonaviy tizimlar mavjud bo'lib, ular orasida iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan eng rivojlangan tizim sifatida klaster tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki klaster tizimi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishidan boshlab, uni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish, sotish va iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan kompleks tizim hisoblanadi. Mazkur tizimda ishlab chiqarish, qayta ishlash, texnologik, iqtisodiy va boshqaruv jarayonlari yagona mexanizm asosida uyg'unlashgan holda boshqariladi. Shu sababli klaster tizimi boshqa tizimlarga nisbatan iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan zamonaviy model sifatida baholanadi.

¹ Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



Klaster tizimining mohiyatiga ko'ra, u bir hududda joylashgan fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika va saqlash infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot hamda innovatsiya markazlarini o'zaro integratsiyalashgan yagona iqtisodiy tizimga birlashtiruvchi model hisoblanadi. Jahon tajribasida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida klaster tizimining rivojlanish darajasi yuqori bo'lib, uning asosiy maqsadi qo'shilgan qiymat zanjirini yagona tizim asosida shakllantirishdan iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida ham meva mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida klaster tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda klaster tizimi meva mahsulotlarini yetishtirish, yig'ib olish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarini yagona iqtisodiy zanjir asosida integratsiyalashgan holda tashkil etish mexanizmi sifatida faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston tajribasida klaster tizimi orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan hamda zamonaviy tizimlar asosida faoliyat yuritayotgan yetakchi meva mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash kompaniyalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Jahon miqyosida yuqori iqtisodiy samaradorlikka va zamonaviy tizimlarga ega bo'lgan top-10 talikka kiruvchi kompaniyalar²

T/r.	Kompaniyalarning nomlari	Joylashgan davlati	Faoliyati yo'nalishi	Iqtisodiy samaradorligi
1.	The Coca-Cola Company	AQSH	Ichimliklar va meva sharbatlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Yuqori brend qiymati; Global supply chain optimizatsiyasi; Yuqori foyda
2.	PepsiCo (Tropicana)	AQSh	Meva sharbatlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Yuqori texnologik ekstraksiya; Minimal chiqindi; Global distribyutsiya
3.	Del Monte Foods	AQSh	Konservalangan va qayta ishlangan meva mahsulotlarini ishlab chiqarish	Vertikal integratsiya; Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish; Barqaror xomashyo bazasi
4.	Dole Food Company (plc)	Irlandiya / AQSh	Meva ishlab chiqarish va qayta ishlash	Global agro-klaster modeli; Logistika samaradorligi; Keng eksport geografiyasi
5.	Döhler Group	Germaniya	Meva asosidagi ingredientlar va konsentratlar ishlab chiqarish va qayta ishlash	Yuqori qo'shilgan qiymat; Innovatsion tadqiqot ishlab chiqish va rivojlantirish tizimi; Global yetkazib berish
6.	AGRANA Beteiligungs AG	Avstriya	Meva preparatlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Klasterlashgan ishlab chiqarish; Yuqori bozor ulushi; Samarali global tarmoq
7.	ANDROS Group	Fransiya	Yogurt va desertlar uchun meva komponentlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Global ishlab chiqarish klasteri; Innovatsion texnologiyalar; Eksport kengligi
8.	Lassonde Industries (Apple & Eve)	Kanada	Meva sharbatlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Brendga asoslangan model; Eksport salohiyati yuqori; Mahsulot diversifikatsiyasi
9.	Dabur Ltd	Hindiston	Meva sharbatlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	Rivojlanayotgan bozorlarda yetakchi; Xomashyo bazasi kuchli; Keng distribyutsiya
10.	Tree Top Inc.	AQSh	Meva ishlab chiqarish va qayta ishlash	Kooperativ klaster modeli; Past tannarx; Barqaror xomashyo ta'minoti

Mazkur 1-jadvalda jahon miqyosida rivojlangan, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega va zamonaviy tizimlar asosida faoliyat yurituvchi yetakchi meva mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlash kompaniyalarining faoliyati va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu kompaniyalar jahon bozorida mustahkam o'rin egallagan, ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va eksport faoliyatini samarali tashkil etgan yirik korxonalar hisoblanadi.

Mazkur kompaniyalar faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan samarali biznes modellarga, xususan klaster tizimi, vertikal integratsiya, yuqori brend qiymati, rivojlangan logistika infratuzilmasi va

² Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



innovatsion texnologiyalarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Shuningdek, mazkur kompaniyalar barqaror o'sish sur'atlari, keng xomashyo bazasi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati va xalqaro bozorlarga moslashgan boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ular global meva sanoati va qayta ishlash bozorida yetakchi o'rinlarni egallagan yirik subyektlar sifatida baholanadi.

Bugungi kunda meva mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati mamlakatimizda ham jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan istiqbolli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Meva mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va eksport qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatida zamonaviy texnologiyalar, klaster yondashuvi, logistika tizimlari va innovatsion boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan va zamonaviy tizimlar asosida faoliyat yuritayotgan yetakchi meva mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlash korxonalarining nomlari va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda batafsil keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda meva mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi yuqori iqtisodiy samaradorlikka va zamonaviy tizimlarga ega bo'lgan korxonalar³

T/r.	Korxonalarining nomlari	Joylashgan hududi	Faoliyati yo'nalishi	Iqtisodiy samaradorligi
1.	Agromir Group	Samarqand viloyati	Meva-sabzavot ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish	Klaster tizimiga ega; Zamonaviy texnologiyalar imkoniyati; Yuqori eksport ulushi
2.	Nestle Uzbekistan	Toshkent shahri	Meva va bolalar ozuqasini qayta ishlash va eksport qilish	Xalqaro standartlar ega; Yuqori sifat nazorati; Global tajriba imkoniyati
3.	Uzagroexport	Toshkent shahri	Meva mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish	Davlat ko'magi yuqori; Eksport hajmi yuqori; Klaster tizimiga ega
4.	"Gold Dried Fruits Export" LLC	Toshkent shahri	Meva va sabzavotlarni quritish, qayta ishlash va eksport qilish	To'liq "field-to-export" tizimi; ISO va xalqaro sifat standartlariga mos; Xomashyo barqarorligi
5.	Tashkentvino Kombinati	Toshkent shahri	Meva asosidagi ichimliklar, sharob ishlab chiqarish va qayta ishlash	Uzoq yillik tajriba; Keng mahsulot liniyasi; Ichki bozor ulushi yuqori
6.	"MEBA-ШАРБАТ" korporatsiyasi	Farg'ona viloyati	Meva mehasulotlarini qayta ishlash va sharbat ishlab chiqarish	Xomashyo yaqinligi; Past tannarx; Mahalliy bozorda barqaror
7.	BMB Agro Cluster	Jizzax viloyati	Meva ishlab chiqarish va qayta ishlash	To'liq klaster tizimi; Zamonaviy texnologiyalar imkoniyati; Eksport salohiyati yuqori
8.	Natural Juice	Toshkent shahri	Meva mehasulotlarini qayta ishlash va sharbat ishlab chiqarish	Mahalliy xomashyodan foydalanish; Zamonaviy qadoqlash texnologiyasi; Ichki bozorda barqaror
9.	Samarkand Konserva JSC	Samarqand viloyati	Meva mehasulotlarini qayta ishlash va sharbat ishlab chiqarish	Mahsulotlarni uzoq muddat saqlash imkoniyati; Eksport va ichki bozorda barqaror faoliyat; Qayta ishlash quvvatini yuqoriligi
10.	MASTER GLOBAL PLYUS	Toshkent viloyati	Meva sharbatlari, konsentrat va pyure ishlab chiqarish	Italiya va Germaniya texnologiyalari; Yil davomida ishlab chiqarish; Eksport salohiyati yuqori

Mazkur 2-jadvalda O'zbekistonda meva mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi, yuqori iqtisodiy samaradorlikka hamda zamonaviy tizimlarga ega bo'lgan korxonalar nomlari va ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu korxonalar O'zbekiston meva sanoati va ichki bozorida muhim o'rin egallagan, shuningdek, jahon bozoriga yirik hajmdagi meva mahsulotlari eksportini amalga oshirayotgan yetakchi subyektlar hisoblanadi. Mazkur korxonalar faoliyati va samaradorligini tahlil qiladigan bo'lsak, ular asosan zamonaviy agroklastar tizimiga asoslangan, mahalliy xomashyo bazasi yuqori bo'lgan, mehnat resurslaridan samarali foydalanayotgan, eksport salohiyati rivojlanib borayotgan va qayta ishlash hajmi yuqori bo'lgan yirik meva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hamda qayta ishlovchi korxonalar sifatida baholanadi.

3 Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.




Bugungi kunda mamlakatimizdagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasida bir qator tizimli vazifalar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq strategik dasturlarni ishlab chiqish zarurati mavjud;
- zamonaviy tizimlarni amaliyotga joriy etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini shakllantirish talab etiladi;
- zamonaviy tizimlarni tatbiq etish sxemalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim;
- xalqaro tajribalar, amaliy ko'nikmalar va tatbiq etish mexanizmlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq;
- korxonalarda mavjud tizimlarning kompleks tahlilini amalga oshirish zarur;
- iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar va ularning natijalarini tizimli baholash talab etiladi.

Mazkur masalalar amaliyotda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ularni izchil hal etish meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda muallif tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagi 2-rasmda izohlangan yangi model zamonaviy yechimlardan biri sifatida taklif etiladi.

Mazkur modelning batafsil konseptual sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Ushbu rasmda ko'rsatilgan modelga ko'ra, markazda meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi joylashgan bo'lib, uning atrofida yettita zamonaviy funksional tizim integratsiyalashgan holda ifodalangan.

Birinchi yo'nalish — raqamlashtirish tizimi bo'lib, u hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish — innovatsion texnologiyalar bo'lib, ular qayta ishlash hajmi va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchi yo'nalish — lean ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u qayta ishlash korxonalarida ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va tejankorlikni kuchaytirishga yordam beradi. To'rtinchi yo'nalish — energiya samaradorligi bo'lib, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Beshinchi yo'nalish — sifat nazorati va xavfsizlik tizimi bo'lib, ekologik jihatdan toza meva mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oltinchi yo'nalish — marketing va eksport tizimi bo'lib, milliy brendlarni rivojlantirish, xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallash va ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish uchun sharoit yaratadi. Yettinchi yo'nalish — logistika va cold chain tizimi bo'lib, zamonaviy tashish xizmatlarini joriy etish, sovitish tizimlari va ombor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning innovatsion modeli⁴

4 Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



Mazkur yettita tizimning rivojlanishi yagona smart-klaster tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu tizim asosida ularni integratsiyalash ko'plab iqtisodiy masalalarni samarali hal etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, klaster tizimining asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchi navbatda investitsiyalar jalb etiladi, ikkinchi navbatda innovatsiyalarni tezkor joriy etish imkoniyati yaratiladi, uchinchi navbatda mahsulot sifati va xavfsizligi oshadi, to'rtinchi navbatda aholi bandligi kengayadi, beshinchi navbatda kooperatsiya va integratsiya jarayonlari kuchayadi, oltinchi navbatda ishlab chiqarish xarajatlari sezilarli darajada qisqaradi, yettinchi navbatda korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi oshadi hamda sakkizinchi navbatda hududiy iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.

Smart-klaster tizimining zamonaviy innovatsion imkoniyatlari va afzalliklarini meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalariga tatbiq etish natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yuzaga keladi. Jumladan, birinchi navbatda korxonalaridagi tannarx bilan bog'liq xarajatlar miqdorini 10–15 foizga kamaytirish, ikkinchi navbatda korxonalarining rentabellik darajasini 15–20 foizga oshirish, uchinchi navbatda mehnat unumdorligini 20–25 foizga ko'paytirish, to'rtinchi navbatda eksport hajmini kengaytirish hamda beshinchi navbatda korxonalaridagi foyda miqdorini yanada oshirish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur zamonaviy modelni mamlakatimizdagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida qo'llash natijasida korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasida ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 5 foizga oshganligi aniqlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahon miqyosida meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan qator zamonaviy tizimlar shakllangan bo'lib, ular orasida eng samarali va istiqbolli tizimlardan biri klaster tizimi hisoblanadi. Klaster tizimi turli iqtisodiy, texnologik va boshqaruv jarayonlarini integratsiyalashgan holda yagona mexanizm asosida birlashtiruvchi innovatsion model sifatida namoyon bo'ladi.

Klaster tizimining rivojlanishi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga, ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmlarining oshishiga, yashil texnologiyalarni keng joriy etishga, muallif tomonidan ishlab chiqilgan yettita zamonaviy tizimning takomillashishiga, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga hamda iqtisodiy samaradorlikning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimizdagi meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida klaster tizimini rivojlantirish meva sanoatini yanada takomillashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish va jahon bozorida yuqori natijalarga erishish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Taklif sifatida jahon meva mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida qo'llanilayotgan zamonaviy tizimlardan samarali foydalanish, xalqaro standartlarning yangi talablarini amaliyotga keng joriy etish, xalqaro tashkilotlar ishtirokida tashqi baholash tizimlarini rivojlantirish hamda korxonalar faoliyatini baholovchi milliy reyting tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, meva mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida raqamlashtirish tizimlarini rivojlantirish, logistika va cold chain infratuzilmasini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur takliflarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi mamlakatimizda meva mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy samaradorlikning oshishiga hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zhang, Z. Economic Evaluation of Apple Harvest and In-Field Sorting Technology. *Transactions of the ASABE*, 2017, Vol. 60, No. 5, pp. 1537–1550.
2. Felfoldi, J., Apati, F. Operation Efficiency in the Fruit Production Chain. *Roczniki Naukowe SERiA*, 2014, Vol. 16, No. 4, pp. 85–90.
3. Fischer, C., Tappeiner, C. VOG Products Case Study. *Acta Horticulturae*, 2023, Vol. 1380, No. 18.
4. Szabo, V. The Economic Efficiency of Apple Production in Terms of Post-Harvest Technology. *APSTRACT*, 2014, Vol. 8, No. 2–3, pp. 99–106.
5. Le Roux, S., Goedhals-Gerber, L. Cold Chain Efficiency in Pome Fruit Operations. *Logistics*, 2025, Vol. 9, No. 4, p. 146.
6. Stroyev, P.V., Pivovarova, O.V. Agroklasterni kak effektivnyy mekhanizm razvitiya rastenievodstva na regionalnom urovne. *Nauchnaya statya*, 2026. DOI: 10.32634/0869-8155-2026-402-01-128-143.
7. Barmuta, K., Matjonov, B., Shichiyakh, R., Dymchenko, O. Cluster Initiatives in Agricultural Sector: Current State, Problems and Prospects of Development. *BIO Web of Conferences Forestry Forum*, 2024, 93, 03001. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249303001>



8. Astratova, G.V., Rushchitskaya, O.A., Onwusiribe, Ch.N., Izmaylov, A.M. Development of Cooperation and Coordination Between Universities and Small and Medium-Sized Businesses in the Agro-Industrial Complex of Russia, Belarus and Nigeria. *Agrarnyy vestnik Urala*, 2025, Vol. 25, No. 3. DOI: 10.32417/1997-4868-2025-25-03-496-514.
9. Salimov, B., Yusupov, M. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirish omillari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2014, № 6, pp. 1–4.
10. Murodov, Ch., Hasanov, Sh., G'aniyev, I. O'zbekiston qishloq xo'jaligida qayta ishlashni rivojlantirishda agroklasterni yaratishdagi dastlabki qadamlar. "O'zbekiston agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2014.
11. Jo'rayev, T.T., Hamidov, M.E. Development of Agro-Industrial Clusters in Uzbekistan and Their Role in Agricultural Development. *International Finance and Accounting*, 2019, Vol. 2, Article 12, pp. 4–6.
12. Urdushev, X., Eshankulov, S. Meva-sabzavotchilik klasterlari: eksportga yo'naltirilgan rivojlanish. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 2025, Vol. 5, Issue 5. ISSN: 2181-1342.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
